



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti
sifatida ommaviy axborot vositalarining
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**
The new constitution of Uzbekistan:
A catalyst for democratic advancement

UDC: 342.41(045)(575.1)

ZAMONAVIY KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA PARLAMENT YUQORI PALATASI FAOLIYATINI ISLOH ETISH: ASOSIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Safarov Djaxongir Ismoilovich,
yuridik fanlar doktori, dotsent
ORCID: 0009-0007-8657-1056
e-mail:si_jaxongir@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda va Markaziy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar sharoitida parlament yuqori palatasining o'рни hamda rolini takomillashtirish bilan bog'liq tendensiyalar tahlil qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib, Oliy Majlis Senati faoliyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha kelgusidagi vazifalar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu sohadagi mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo'llari haqida aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar, parlament, yuqori palata, Senat, parlament nazorati, qonun ijodkorligi, parlament a'zosi maqomi, hududiy vakillik

РЕФОРМИРОВАНИЕ ВЕРХНЕЙ ПАЛАТЫ ПАРЛАМЕНТА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫХ РЕФОРМ: ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Сафаров Джахонгир Исмоилович,
доктор юридических наук, доцент

Аннотация. В этой статье анализируются тенденции, связанные с реформированием значения и роли верхней палаты парламента в условиях конституционно-правовых реформ, проводимых в Узбекистане и странах Центральной Азии. Рассматриваются вопросы о предстоящих задачах по совершенствованию законодательства о Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан с учётом новой редакции Конституции. Выдвинуты конкретные предложения и рекомендации о существующих проблемах в этой сфере и путях их решения.

Ключевые слова: конституционно-правовые реформы, парламент, верхняя палата, Сенат, парламентский контроль, законотворчество, статус члена парламента, территориальное представительство.

REFORMS OF THE UPPER CHAMBER OF PARLIAMENT IN THE CONDITIONS OF MODERN CONSTITUTIONAL AND LEGAL REFORMS: MAIN TRENDS AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT

Jakhongir Safarov Ismoilovich
Doctor of Law, Associate professor

Abstract. *This article analyzes trends related to improving the place and role of the upper chamber of parliament in the context of constitutional-legal reforms carried out in Uzbekistan and the countries of Central Asia. Issues about upcoming tasks to improve the legislation in the Senate of the Oliy Majlis are considered, taking into account the new edition of the Constitution. Concrete proposals and recommendations were put forward on existing problems in this area and ways to solve them.*

Keywords: *constitutional-legal reforms, parliament, upper house, Senate, parliamentary control, lawmaking, status of a member of parliament, territorial representation.*

I. Konstitutsiyaviy islohotlar siyosiy va boshqaruv tizimini to'liq yangiladi

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilish bilan yakunlangan konstitutsiyaviy islohotlar mamlakat taraqqiyotida alohida muhim o'rin tutadi. Konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati va zarurati huquqshunos olimlar tomonidan keng yoritildi. Ularda asosiy tezislar mazkur islohotlar "Konstitutsiyani davlatchilik taraqqiyotining bugungi tendensiyalari va dunyodagi siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirish" [1], "mamlakatimiz taraqqiyotining so'nggi yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini mustahkamlash" [2] zarurati bilan izohlanganini juda to'g'ri deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy o'zgarishlar har qanday mamlakat taraqqiyotida muhim jarayon bo'lib, jamiyat hayotida qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning chuqur isloh etilishi bilan hamohang holda kechadi. Konstitutsiyaviy huquq sohasi olimlari ta'kidlaganidek, "konstitutsiyaviy matnning qisman o'zgartirilishi ham konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning jiddiy qaytadan ko'rib chiqilishiga, mamlakatning yangicha konstitutsiyaviy rivojlanish yo'liga o'tishiga sabab bo'lishi mumkin" [3].

Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-aprelda referendum orqali yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi natijasida mamlakat siyosiy va boshqaruv tizimi to'liq yangilandi. Ushbu konstitutsiyaviy islohotlarning ko'lami yangilan-

gan Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotini qurishning yangi talablarini belgilaganidan hamda davlatchilikni konstitutsiyaviy rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berganidan dalolatdir. Konstitutsiyaviy islohotlar davlat va jamiyat qurilishining fundamental, bazaviy institutlari – konstitutsiyaviy tuzum, xalq hokimiyatchiligi asoslarini, inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklarini, jamiyat va shaxs, davlat hokimiyatini tashkil etish, shu jumladan, parlament, Prezident, Hukumat maqomini, mahalliy davlat hokimiyati boshqaruvi tizimini tubdan isloh etdi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida "shaxs – jamiyat – davlat" prinsipiga asoslangan va uni rivojlantirish uchun zamin yaratuvchi yangilangan konstitutsiyaviy asos yaratildi. Ushbu konstitutsiyaviy o'zgarishlar, o'z navbatida, yangicha davlat-huquqiy va siyosiy-huquqiy qadriyatlar shakllanishi uchun jiddiy turtki bo'ladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar tizimida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlash-tirish, jumladan, parlament yuqori palatasi faoliyatini takomillashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning aksariyati jamiyat va davlat hayotida parlamentning rolini oshirish, davlat rahbari vakolatlarining bir qismini parlamentga o'tkazish, Hukumatning parlament oldidagi mas'uliyatini oshirish kabi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi [3]. Mamlakatimizda bo'lib o'tgan konstitutsiyaviy o'zgarishlar ham bundan mustasno emas, ushbu islohotlar davomida asosiy davlat-chilik institutlari – Parlament, Prezident, Hu-

kumatning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'rnini qaytadan ko'rib chiqilib, siyosiy tizimni modernizatsiya qildi, davlat hokimiyatini amalga oshirishni yanada muvozanatlashtirildi hamda konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar barqarorligini, parlamentarizm kafolatlarini sezilarli kuchaytirdi, parlamentning nazorat vakolatlarini kengaytirdi, konstitutsiyaviy jarayonlarning tadrijiyligi, uzluksizligi ta'minlandi.

II. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Oliy Majlis yuqori palatasi – Senatning maqomi takomillashtirildi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Oliy Majlis palatalari, shu jumladan, Senatning vakolatlari ham qayta ko'rib chiqildi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, ikki palata ishidagi takrorlanishlarni bartaraf etish maqsadida **har bir palataning mas'uliyat sohasi aniqlashtirildi**. Hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish, Davlat byudjeti ijrosiga oid masalalar Qonunchilik palatasining vakolatiga, hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa Senat vakolatlari doirasiga taalluqli ekani mustahkamlandi.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari ham kuchaytirilib, parlament nazoratining muhim shakli bo'lgan parlament tekshiruv instituti Konstitutsiyada birgalikdagi vakolat sifatida alohida mustahkamlab qo'yildi.

Ikkinchidan, Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan, eski tahrirdagi Konstitutsiyada Senatning 14 ta vakolati nazarda tutilgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada 18 ta vakolati belgilandi.

Uchinchidan, Senat oldiga qo'yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni **ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish** bo'yicha nor-

malar kiritildi. Xususan, senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushirildi, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi belgilandi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirildi [4].

To'rtinchidan, Senatning **qonun ijodkorligi faoliyatidagi ishtiroki** mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan, ushbu jarayonda **vaqt chegaralari** belgilandi, unga ko'ra, Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlar Senatda 60 kun ichida ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Basharti Senat ushbu muddatda qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni imzolash va e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboradi.

Yana bir muhim yangilik – Senatga ham **qonunchilik takliflarini** qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish vakolati berildi. Qonunchilik taklifi ham yangi konstitutsiyaviy-huquqiy institut bo'lib, nazarimizda, uni amalga oshirish tartib-taomillarini aniqlashtirish ehtiyoji bor.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda Senat **Oliy Majlisning qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlari bajarishi** (Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar bundan mustasno) belgilandi. Ushbu vakolat ham O'zbekiston huquqiy tizimi uchun mutlaqo yangi bo'lib, uni amalga oshirishning batafsil tartib-taomillari qonunchilikda aniqlashtirib berilish zarur deb hisoblaymiz.

Beshinchidan, Senatning **sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat** funksiyalari Senatning mansabdor shaxslarni lavozimiga saylash jarayonidagi vakolatlarini kengaytirish va Prezidentining ayrim vakolatlarini Senatga o'tkazish orqali yanada kuchaytirildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi rah-

barligiga nomzodlar avval Senatda ko'rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi amaliyoti joriy etildi. Eski tartib bo'yicha Bosh prokuror, Hisob palatasining raisini lavozimiga tayinlash va ozod etish masalasi Prezident farmoniga asosan amalga oshirilgan bo'lsa, endilikda ular Prezident taqdimnomasiga asosan Senat tomonidan saylanadi.

Maxsus xizmatlar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzodning Senat bilan maslahatlashuvlardan so'ng Prezident tomonidan lavozimga tayinlanishi belgilandi. Eski tartib bo'yicha Senat Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash bilan cheklanardi, ya'ni nomzodni tanlash masalasiga real ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega emas edi. Aksincha, postfaktum ishlardi, endilikda esa barvaqt ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritildi (ilgari faqatgina Sudyalar oliy kengashining raisi Senat tomonidan saylanardi). Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarini lavozimiga tayinlash to'g'risidagi Prezident farmonini tasdiqlash masalasi ham Senatning vakolatiga o'tkazildi.

"Bu jarayonlar, albatta, Senatning davlat boshqaruvidagi vakolatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, parlament xalq vakillaridan iborat ekanligi, davlat boshqaruvi organini shakllantirish jarayonida fuqarolarning bevosita emas, balki vakillari orqali bilvosita ishtirokini kengaytirayotganidan dalolat" [5].

Oltinchidan, Senatning **tashqi siyosat sohasidagi nazorat vakolatlari** aniqlashtirildi va kuchaytirildi. Xususan, Senat ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini" tayinlash va lavozimidan ozod etish vakolatiga ega edi. Lekin bu holatda

"boshqa vakillari" tushunchasi noaniq edi, chunki konsullik muassasalarida juda ko'p lavozimlar bo'lib, ularning barchasi bo'yicha Prezident va Senat ishtiroki talab etilmasdi. Shundan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ushbu noaniqlikka barham berilib, Senat Prezident taqdimiga binoan "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalari **rahbarlarini**" tayinlashi va lavozimidan ozod etishi belgilandi. Shu bilan birga, Senatning O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan **hisobotlarini eshitish** bo'yicha "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunda (10³-modda) nazarda tutilgan vakolati Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Yettinchidan, Senat hududiy vakillik palatasi sifatida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid konstitutsiyaviy vakolatlarga ega bo'ldi. Xususan, Senat mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z **faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish** hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining **qarorlarini**, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, **bekor qilish** vakolatiga ega bo'ldi.

Ushbu vakolatlar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida konstitutsiyaviy islohotlardan so'ng Senat Devonida Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi tashkil etildi.

Sakkizinchidan, Senat va uning Raisi bilan bog'liq ayrim tashkiliy-huquqiy tartib-taomillar belgilandi. Xususan, Senat Raisi va ayrim oliy mansabdor shaxslar (Qonunchilik palatasi Spikeri, Oliy sud va Sudyalar oliy kengashi raislari, ularning o'rinbosarlari, Bosh prokuror, Markaziy saylov komissiyasi raisi, hokimlar)ning lavozimga ikki muddatdan ortiq saylanishi (tayinlanishi)ga cheklov kiritildi.

Shuningdek, Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berilmoqda, ushbu tartibni amalga oshirish uchun senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi lozim bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, parlament Avstriya, Xorvatiya, Vengriya, Turkiyada – oddiy ko'pchilik ovozi bilan, Bosniya va Gersegovina-da, Kiprda – malakali ko'pchilik ovozi bilan, Qirg'izistonda, Polshada – a'zolarining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan, Litvada – beshdan uch qismidan iborat ovozi bilan qabul qilinadigan qaror asosida o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolatiga ega.

III. Markaziy Osiyo davlatlarida parlament yuqori palatasi: qiyosiy-huquqiy tahlil

Markaziy Osiyo mamlakatlarida bir palatali (Qirg'iziston, Turkmaniston) va ikki palatali (bikameral) (O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston) parlamentlar faoliyat ko'rsatadi. Bunda quyi palatalar xalq vakilligi palatasi sifatida qoida tariqasida to'g'ridan to'g'ri saylovlar, yuqori palata esa hududiy vakillik palatasi sifatida bilvosita saylovlar orqali shakllantiriladi [6].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, so'nggi besh yillik Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida keng ko'lamlı konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar bilan hamohang kechdi. Markaziy Osiyo davlatlarida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar ham qonun chiqaruvchi hokimiyatning yuqori palatasi faoliyati bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'ldi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ikki palatali parlamentlar – 1995-yildan boshlab *Qozog'istonda* (Senat va Majlis), 1999-yildan e'tiboran *Tojikistonda* (Vakillar palatasi va Milliy Kengash) hamda 2005-yildan boshlab *O'zbekistonda* (Qonunchilik palatasi va Senat) faoliyat ko'rsatmoqda. Turkmanistonda 2021-yilda tashkil etilgan parlament yuqori palatasi (Xalq Maslahati) 2023-yilgi konstitutsiyaviy islo-

hotlar natijasida parlamentdan ajratilib, xalq hokimiyatining (mustaqil) oliy organi deb e'lon qilindi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston parlamentlari yuqori palatalari faoliyatini quyidagi mezonlar bo'yicha qiyosiy-huquqiy taqqoslab, tahlil qilib ko'rsak.

Birinchi dan, yuqori palata a'zolarining soni va vakolat muddati. Parlament yuqori palatasi 33 (Tojikiston), 50 (Qozog'iston) va 65 (O'zbekiston) nafar a'zodan iborat. Xususan, *Qozog'istonda* Senat 50 nafar deputatdan iborat bo'lib, viloyat, respublika ahamiyatidagi shaharlar va poytaxtdan ikki nafardan iborat tarkibda bilvosita saylov (maslahatlar orqali) yo'li bilan saylanadi. Senatning 10 nafar deputati mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Senat deputatlarining vakolat muddati 6 yil (quyi palata 5 yilga saylanadi) bo'lib, ularning yarmi har 3 yilda qayta saylanadi. Ta'kidlash lozimki, Qozog'istonda Senat deputatlari soni kam bo'lsa-da, ularning **barchasi professional (doimiy asosda)** faoliyat yuritadi.

Tojikistonda esa parlamentning yuqori palatasi – Milliy Majlis 33 nafar senator-dan iborat bo'lib, ulardan 25 nafari barcha ma'muriy-hududiy birliklardan teng ravishda bilvosita saylov yo'li bilan (mahalliy deputatlar qo'shma majlislarida) saylanadi. Milliy Majlisning 8 nafar a'zosi Prezident tomonidan tayinlanadi. Milliy Majlisning vakolat muddati quyi palata bilan bir xil, ya'ni 5 yilni tashkil qiladi. Tojikistonda parlamentning yuqori palatasi O'zbekistondagi singari chiqiriq tartibida ish yuritadi.

Ikkinchi dan, yuqori palata a'zolariga qo'yilgan talablar. *Qozog'istonda* Senat deputati bo'lish uchun shaxs 30 yoshga to'lgan, oliy ma'lumotga, 5 yildan kam bo'lmagan ish tajribasiga ega bo'lishi hamda tegishli hudud-da kamida 3 yil doimiy istiqomat qilgan bo'lishi talab etiladi. *Tojikistonda* esa 25 yoshga yetgan va oliy ma'lumotga ega har qanday fuqaro Milliy Majlis a'zosi bo'lishi mumkin. *O'zbekistonda* 25 yoshga to'lgan hamda kami-

da 5 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqaro Senat a'zosi bo'la oladi.

Uchinchidan, yuqori palata qo'mitalari soni. Qozog'iston va Tojikiston yuqori palatasida 6 tadan qo'mita, O'zbekistonda esa 10 ta qo'mita faoliyat ko'rsatadi. Xususan, *Qozog'iston* Senatida konstitutsiyaviy qonunchilik, sud tizimi va huquqni muhofaza qilish organlari bo'yicha qo'mita, Moliya va byudjet bo'yicha qo'mita, Xalqaro munosabatlar, mudofaa va xavfsizlik bo'yicha qo'mita, Iqtisodiy siyosat, innovatsion rivojlantirish va tadbirkorlik bo'yicha qo'mita, Ijtimoiy-madaniy rivojlantirish va fan bo'yicha qo'mita, Agrar masalalar, tabiatdan foydalanish va qishloq hududlarini rivojlantirish bo'yicha qo'mita faoliyat ko'rsatadi. Qozog'iston Senatida, shuningdek, Senatorlar Kengashi, Mahalliy vakillik organlari (maslahatlar) bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha kengash hamda Inklyuziya bo'yicha kengash faoliyat ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, Qozog'iston Senatining yana bir o'ziga xos, O'zbekiston va Tojikiston parlamentarizmida uchramaydigan jihati bor – Senatning kamida 15 nafar deputati **deputatlik guruhiga** birlashishga haqli (partiyaviy prinsip asosida birlashish bundan mustasno). Yuqori palatada deputatlik guruhi Senat byurosida ro'yxatdan o'tadi va o'z qarori haqida Senat raisini xabardor qiladi. Deputatlik guruhining ichki faoliyati u tomonidan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Senatdagi deputatlik guruhi o'zlari tayyorlagan materiallarni Senat byurosi orqali deputatlar orasiga tarqatishga, muzokaralarda kafolatli so'z olishga haqli. Hozirgi vaqtda Qozog'iston Senatida 2 ta deputatlik guruhi faoliyat ko'rsatadi.

Tojikiston Milliy Majlisida esa Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, konstitutsiyaviy asoslarni va qonuniylikni ta'minlash bo'yicha qo'mita, Agrar masalalar, aholi bandligi va ekologiya bo'yicha qo'mita, Ijtimoiy masalalar, sog'liqni saqlash, fan va ma'naviyat, madaniyat va jamiyatda ayollarga nisbatan siyosat masalalari bo'yicha

qo'mita, Milliy Majlis va Vakillar palatasi, Ijro hokimiyati organlari, siyosiy va jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik hamda parlamentlararo aloqalar bo'yicha qo'mita, Iqtisodiyot va kommunikatsiyalar bo'yicha qo'mita, Davlat dasturlari ustidan nazorat bo'yicha qo'mita tashkil etilgan.

O'zbekiston Senatida esa Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi, Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi, Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi, Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi, Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi hamda Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi tashkil etilgan.

To'rtinchidan, yuqori palataning vakolatlari. *Qozog'istonda* Senatning mutlaq vakolatiga Oliy sud raisi va sudylarini lavozimga saylash va ozod etish (Prezident taqdimiga ko'ra), ularning qasamyodini qabul qilish, Inson huquqlari bo'yicha vakilni lavozimga saylash va ozod etish (Prezident taqdimiga ko'ra), Milliy bank, Bosh prokuror, Milliy xavfsizlik qo'mitasi raisi, Konstitutsiyaviy sud raisi, Sudyalar oliy kengashi raisini Prezident tomonidan lavozimga tayinlashga rozilik berish, Bosh prokuror, Oliy sud raisi va sudyalari, Inson huquqlari bo'yicha vakilni daxlsizlikdan mahrum qilish, quyi palata vakolatlari muddatidan oldin tugatilib, vaqtincha faoliyat ko'rsatolmaydigan davrda parlamentning konstitutsiyaviy qonunlar va qonunlarni qabul qilish funksiyasini bajarish kabilar kiradi. Qozog'istonda Senat deputatlari qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Qozog'iston Senati "Hukumat soati" o'tkazish vakolatiga ega [7]. O'zbekiston Respublikasi-

da “Hukumat soati”ni o‘tkazish Qonunchilik palatasi vakolatiga kiritilgan.

Qozog‘iston Senati faoliyatiga oid qonunchilikka 2019-yilda kiritilgan yana bir o‘zgartirish Senat yig‘ilishlarida mansabdor shaxslar ishtiroki bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, Senatning ishchi guruhlarini yig‘ilishlarida – departament direktori yoki qo‘mita raislari; qo‘mita majlislarida – rahbar o‘rinbosarlari; Senat majlislarida – rahbarning birinchi o‘rinbosarlari yoki Senat rahbariyatining qaroriga ko‘ra, davlat organlarining rahbarlari qatnashadi.

Tojikistonda parlament palatalari o‘rtasidagi vakolatlar qat‘iy taqsimot qilingan. Xususan, ma‘muriy-hududiy birliklarni tashkil etish, o‘zgartirish yoki tugatish, sud hokimiyatining oliy organlari sudyalari va rahbarlarini saylash va chaqirib olish (Prezident taqdimiga ko‘ra), ularni daxlsizlik huquqidan mahrum etish haqidagi masalani hal qilish, shuningdek, Bosh prokuror va uning o‘rinbosarlarini lavozimiga tayinlash va ozod etishga ruxsat berish Milliy Majlis vakolatiga kiritilgan.

O‘zbekistonda Senatning 18 ta mutlaq konstitutsiyaviy vakolati belgilangan. Ushbu vakolatlardan 7 tasi Prezident bilan hamkorlikda amalga oshiriladi, ya‘ni Prezident taqdimiga, taklifiga yoki hujjatiga munosabat bildirish (saylash, ma‘qullash, maslahatlashuv o‘tkazish, lavozimiga saylash) tarzidagi vakolatlar hisoblanadi.

Ta‘kidlash lozimki, yangilangan Konstitutsiyada ilk marotaba maslahatlashuv o‘tkazish instituti kiritildi. Unga ko‘ra, Senat Prezident tomonidan taklif etilgan Davlat xavfsizlik xizmati raisi lavozimiga nomzod yuzasidan maslahatlashuvlar o‘tkazadi. Shu o‘rinda, fikrimizcha, endilikda maslahatlashuvlar o‘tkazish tartibi masalasi joriy qonunchilikda aniqlashtirilishi lozim.

Yangilangan Konstitutsiyada Senatning **10 ta** davlat organi (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish organi, Monopoliyaga qarshi organ, Bosh prokuror, Hisob palatasi,

Davlat xavfsizlik xizmati, Markaziy bank, chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalar) bo‘yicha kadrlarga oid vakolatlari, ya‘ni mansabdor shaxslarning lavozimga tayinlanishida (saylanishida) bevosita ishtirok etishi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiyada Senatning **3 ta** davlat organi mansabdor shaxslarining (Bosh prokuror, Markaziy bank boshqaruvi raisi, chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalar rahbarlari) hisobotlarini eshitishi nazarda tutilmoqda.

Beshinchidan, yuqori palataning **qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki** ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, *Qozog‘istonda* Senatning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki muayyan chegaralarga ega. Ya‘ni Senatda quyi palata qabul qilgan qonun 60 kun ichida ko‘rib chiqilishi kerak. Ushbu muddat ichida ko‘rib chiqilmagan qonunlar parlament tomonidan qabul qilingan hisoblanib, to‘g‘ridan to‘g‘ri Prezidentga kiritiladi.

Shuningdek, Senatda quyi palata qabul qilgan qonun ikki o‘qishda ko‘rib chiqiladi. Uning natijasi bo‘yicha qonun ma‘qullanishi yoki to‘liq yoxud uning alohida moddalari ma‘qullanmay, quyi palataga qaytarilishi mumkin. Bunda Senat quyi palataga qonunning alohida moddalari bo‘yicha o‘zining tahririni taklif qilishi mumkin.

Qozog‘iston Senati quyi palata qabul qilgan qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega bo‘lib, ushbu o‘zgartirishlarni quyi palata yana ovoz berib ma‘qullashi talab qilinadi. Shuningdek, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining kiritilgan qonunni Senatdan ham qaytarib olish huquqi ham O‘zbekiston qonunchiligida uchramaydi.

Qozog‘iston Senati bilan bog‘liq yana bir ijobiy tajriba sifatida ushbu davlat qonunchiligida dastlabki konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish tartibiga aniqlik kiritib o‘tilganini aytish mumkin. Ya‘ni Senat raisi

yoki parlament a'zolari umumiy sonining beshdan biridan kam bo'lmagan miqdorda Senat deputatlari tashabbusi bilan quyi palata qabul qilgan qonunning (Prezident imzolagunga qadar) Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli. Mazkur holatda qonunlarni qabul qilish bo'yicha muddatlar o'tishi to'xtatiladi.

Qozog'iston Senati faoliyatiga oid qonunchilikda Senatning quyi palata vakolati mudatidan ilgari tugatilgan hollarda konstitutsiyaviy qonunlar va qonunlarni qabul qilish bo'yicha parlament funksiyalarini vaqtinchalik bajarish masalasi alohida tartibga solingan. Xususan, unga ko'ra, Qozog'iston Senati ushbu davrda qonunni ko'rib chiqib, quyi-dagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli: 1) Majlis tomonidan qabul qilingan qonunni birinchi o'qishda ma'qullash; 2) Majlis tomonidan qabul qilingan qonunni ma'qullash; 3) Majlis tomonidan qabul qilingan qonunni Senat yoki kelishuv komissiyasi tomonidan taqdim etilgan tahrirda ma'qullash; 4) Majlis tomonidan qabul qilingan qonunni ma'qullamaslik; 5) qonun loyihasini birinchi o'qishda ma'qullash; 6) qonunni qabul qilish; 7) qonunni Senat tomonidan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan qabul qilish; 8) qonun loyihasini rad etish [8].

O'zbekiston Konstitutsiyasida ham analogik norma kiritilganini hisobga olib, ushbu masalani milliy qonunchilikda batafsil huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tojikistonda Milliy Majlis qonun ijodkorligi jarayonining muhim ishtirokchisi bo'lsa-da, byudjet va amnistiya oid qonun loyihalarini ko'rib chiqishda ishtirok etmaydi. Shuningdek, Tojikistonda ham Milliy Majlis a'zolariga qonunchilik tashabbusi huquqi berilgan.

Oltinchidan, yuqori palatalarning rahbar organlarini shakllantirish yakkaboshchilik va kollegial tartibda hal qilinadi. Qozog'iston va

O'zbekistonda Senat raisi lavozimiga nomzodlar Prezident tomonidan taqdim etilsa, Tojikistonda ushbu masala palata a'zolari tomonidan mustaqil hal etiladi [9].

IV. Konstitutsiyaviy islohotlardan kelib chiqib, Oliy Majlis Senati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xulosalar

1. Konstitutsiyaga yangi kiritilgan **qonunchilik taklifi** institutini amalga oshirish tartib-taomillarini qonun hujjatlarida aniq belgilab berish, shu jumladan, qonunchilik taklifini rasmiylashtirish tartibi, uning ilovalari, qonunchilik taklifini Qonunchilik palatasida ko'rib chiqish va himoya qilish, qonunchilik taklifi asosida qonun loyihasini ishlab chiqish tartib-taomillarini aniq belgilash lozim.

2. Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda Senat **Oliy Majlisning qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlarini bajariishi** (Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar bundan mustasno) tartib-taomillarini aniqlash. Xususan, Senat tomonidan qonun loyihasini qabul qilish va ma'qullash, shu jumladan, loyihani bir nechta o'qishda ko'rib chiqish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini aniq belgilash zarur.

3. Konstitutsiyaga yangi institut – **Senat bilan maslahatlashuvlar o'tkazish instituti** haqidagi norma ham kiritildi. Ushbu institut Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzodni lavozimga tayinlashda qo'llanadi. Lekin maslahatlashuvlar qay tartibda amalga oshirilishi, buning uchun yozma taqdimnoma kiritilishi va u Senat majlisida ko'rib chiqilishi yoxud boshqacha muqobil variant bo'lishi aniq tartibga solinishi maqsadga muvofiq.

4. Senat mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z **faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashishi** yangi konstitutsiyaviy-huquqiy vakolat sifatida belgilandi. Ushbu konstitutsiyaviy vakolatni amalga oshirish mexanizmlari ustida ishlash, Senat mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini amalga oshirishga qay tartibda ko'maklashishini tartibga solish zarur.

5. Qozog‘iston tajribasidan kelib chiqib, Senat a‘zolariga nomzodlarning **kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo‘lishi** bo‘yicha talabni kiritish maqsadga muvofiq, chunki Senatga yuklatilgan konstitutsiyaviy vakolatlarni samarali amalga oshirish uning a‘zolari katta hayotiy va amaliy tajribaga ega bo‘lishini taqozo etadi.

6. Qozog‘iston va Tojikiston tajribasidan kelib chiqib, shuningdek, senatorlar sonining qisqarganini hisobga olib, qolaversa, Senat qo‘mitalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Senatdagi **qo‘mitalar sonini optimallashtirish** maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, doimiy asosda ishlaydigan Senat a‘zolari sonini qisqartirmaslik zarur. Buning uchun qonunchilikka Senat a‘zolarining doimiy asosda ishlovchi a‘zolarini foiz ko‘rsatkichida ifodalashdan voz kechib, **kamida 25 nafari** degan tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq.

7. Qozog‘iston tajribasidan kelib chiqib, Senat yig‘ilishlarida **mansabdor shaxslar ishtirokini** aniq tartibga solish taklif etiladi: Senatda bo‘ladigan ishchi guruhlar yig‘ilishlarida – vazirlik va idoralarning departament, bosh boshqarma rahbari; Senat qo‘mitalari majlislarida – vazirlik va idoralar rahbari o‘rinbosarlari; Senat majlislarida – rahbarning birinchi o‘rinbosarlari yoki kadruga oid masalalar ko‘rib chiqilganda, shuningdek, alohida hollarda Senat raisining taklifiga ko‘ra, davlat organlarining birinchi rahbarlari qatnashishini qonunchilikda belgilab qo‘yish taklif etiladi.

8. Senatning **qonun ijodkorligi jarayonidagi** rolini takomillashtirish, shu jumladan, unga qonunning mazmuniga ta‘sir ko‘rsatmaydigan tahririy tuzatishlar kiritish, shuningdek, qonun rad etilganda, Qonunchilik palatasiga qonunning Senat a‘zolari e‘tiroziga sabab bo‘lgan alohida moddalari bo‘yicha Senat tahririni taqdim etish kabi vakolatlarini belgilash maqsadga muvofiq.

9. Qozog‘iston tajribasidan kelib chiqib, **dastlabki konstitutsiyaviy nazorat-**

ni amalga oshirish tartibiga aniqlik kiritish lozim. Yangilangan Konstitutsiyaning 133-moddasida Konstitutsiyaviy sud Prezident imzolaguniga qadar – konstitutsiyaviy qonunlar, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlashi nazarda tutilgan. Biroq Konstitutsiyaviy sud ushbu vakolatini qonunlar bo‘yicha ixtilof yoki shubha bo‘lganda murojaat asosida amalga oshiradimi yoki barcha shunday qonunlar bo‘yicha dastlabki konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiradimi, degan savol ochiq qolgan. Fikrimizcha, ushbu masala manfaatdor tomonlarda (Qonunchilik palatasi, Senat, Prezident) qonunlar bo‘yicha ixtilof yoki shubha kelib chiqqanda, ularning murojaati asosida ko‘rib chiqilishi lozim. Ushbu masalani qonunchilikda aniq belgilash talab etiladi. Shu bilan birga, agarda qonun Senatda ko‘rib chiqilayotgan vaqtda Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga qaror qilinsa, bunda Senatning qonunni ko‘rib chiqish bo‘yicha 60 kunlik muddati o‘tishi to‘xtashi kerakligini ham belgilash lozim. Qolaversa, ushbu toifadagi qonunlar bo‘yicha Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish masalasi qanday hal qilinishi, shu jumladan, tashabbus qilish vakolati kimlarga tegishligi va ushbu masala qay tartibda ko‘rib chiqilishi (Kengash yoki palata vakolati) kabi masalalarni ham qonun hujjatlarida aniq belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, 2023-yildagi konstitutsiyaviy islohotlar siyosiy tizimni modernizatsiya qilish, davlat hokimiyati tizimida vakolatlar taqsimotini muvozanatlashtirish jarayonlarini yakunlamaydi, albatta. Bu boradagi, jumladan, parlamentning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini kuchaytirishga, parlamentarizm asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan islohotlar, yangilangan Konstitutsiya asosida kiritilgan konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarni aniqlashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha ishlar davom etadi.

REFERENCES

1. Saidov A.X. Yangi O'zbekiston hamda konstitutsiyaviy islohotlar // The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life: Republican Scientific and Practical Conference. – Tashkent, 2022. – 6 b.
2. Mamajonova D. Konstitutsiyaviy islohotlar – xalq manfaatining asosiy mezonlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2 (10). – 690 b.
3. Xabriyeva T.Y., Andrichenko L.V. Konstitutsionnaya reforma v Respublike Kazaxstan: tendensii i perspektivy razvitiya // Jurnal zarubejnogo zakonodatelstva i sravnitel'nogo pravovedeniya. – 2017. – № 3. – S.143-144.
4. Norboboyev B.J. Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Vol. 3 (4). – 862-863-b.
5. Polvonov Sh. Konstitutsiyaviy islohotlar: Senat vakolatlari kengayadi // "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi – <https://adolat24.uz/?p=24843>
6. Chirkin V.Y. Verxnyaya palata sovremennogo parlamenta: sravnitel'no-pravovoye issledovaniye. – M., 2015.
7. Abaydeldinov Y.M. Konstitutsionnaya reforma i voprosy sovershenstvovaniya parlamentnogo monitoringa v Respublike Kazaxstan // Vestnik Instituta zakonodatelstva RK. – 2017. – № 1 (46). – S. 66.
8. Januzakova L.T. Konstitutsionnaya reforma v Kazaxstane: nekotorye voprosy sovershenstvovaniya statusa i polnomochiy Prezidenta i Parlamenta // Aktualnye problemy rossiyskogo prava. – 2018. – № 5 (90). – S. 186-187.
9. Nechkin A.V. Parlamenty stran SNG: struktura, poryadok formirovaniya i dosrochnogo prekrasheniya polnomochiy // Sravnitel'noye pravovedeniye. – 2017. – № 4 – S. 73.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.